

## KUTUBXONALARDA MA'NAVIY-MA'RIFIY TADBIRLARNI TASHKIL ETISH VA AMALGA OSHIRISH TEXNOLOGIYASI

**O'ktam Nosirov,**

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti  
"Kutubxona-axborot faoliyati" kafedrasining professori v.b.,  
falsafa fanlari nomzodi*

**Annotatsiya.** Maqolada tadqiqot mavzuimiz bo'yicha ilmiy adabiyotlar tahlili, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishga oid ilg'or tajribalarni o'rganish, kuzatish natijalari asosida aniq maqsad va mazmunga bo'ysundirilgan bir butun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonini aks ettirgan tizimli-funksional modelni haqida tahliliy xulosalar berilgan. Ushbu xulosalar ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni amalga oshirishda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlar va prinsiplarning tizimlashtirilgan majmuasi ekanligi asoslangan. Shuningdek, an'anaviy usullar bilan birgalikda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash yo'llari ham ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** ma'naviy-ma'rifiy tadbir, texnologiya, ssenariy, samaradorlik, fan, texnika, taraqqiyot, kommunikativ, model, jarayon.

## ТЕХНОЛОГИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И ПРОВЕДЕНИЯ ДУХОВНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИХ МЕРОПРИЯТИЙ В БИБЛИОТЕКАХ

**Аннотация.** В статье представлены аналитические выводы о системно-функциональной модели, отражающей целостный процесс проведения духовно-просветительских мероприятий, подчинённых конкретной цели и содержанию. Модель обоснована на анализе научной литературы по теме исследования, изучении передового опыта организации духовно-просветительских мероприятий, а также на результатах наблюдений. В выводах подчёркивается, что данная модель представляет собой систематизированный комплекс личностно-ориентированных подходов и принципов, применяемых при реализации духовно-просветительских мероприятий. Кроме того, показаны пути использования современных технологий наряду с традиционными методами.

**Ключевые слова:** духовно-просветительское мероприятие, технология, сценарий, эффективность, наука, техника, прогресс, коммуникативный, модель, процесс.

## TECHNOLOGY OF ORGANIZING AND IMPLEMENTING SPIRITUAL AND EDUCATIONAL EVENTS IN LIBRARIES

**Abstract:** The article presents analytical conclusions about a systematic-functional model reflecting the process of a whole spiritual and educational event, subordinated to a specific goal and content, based on the results of an analysis of scientific literature on the topic

*of our research, a study of best practices in conducting spiritual and educational events. These conclusions are based on the fact that it is a systematized set of approaches and principles focused on the individual in the implementation of spiritual and educational events. Also, ways of using modern technologies in conjunction with traditional methods are shown.*

**Keywords:** *spiritual and educational event, technology, scenario, efficiency, science, technique, development, communicative, model, process.*

## KIRISH

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasi modelini yaratish printsiplari alohida ahamiyatga ega. Uzluksizlik prinsipi. Fan-texnika taraqqiyoti, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyalarini amaliyotga keng ko'lamda qo'llash hozirgi zamon va istiqbolda mustaqil ravishda ijodiy faoliyat ko'rsatish uchun shaxsga uning butun umri davomida yetarli bo'lgan bilim, hatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarini belgilangan vaqt davomida berish mumkin bo'lmagan, balki u butun hayoti davomida takomillashtirilib borilishini nazarda tutadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar jarayonida uzluksizlik prinsipi muayyan tadbir avval o'tkazilgan tadbirning tabiiy va mantiqiy davomi sifatida avval erishilgan darajasini mustahkamlash va rivojlantirishni, yangi darajaga ko'tarishni ifodalaydi.

Uzluksizlik prinsipi foydalanuvchilarni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga jalb qilishdan tortib, ularni yanada faollashtirish, tadbirlarni tayyorlash jarayonida bevosita ishtirok etish, umuminsoniy va milliy qadriyatlarni o'rganish ehtiyojini shakllantirishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga olishi zarurligi jihatidan shaxsga qaratilgan texnologiyalar yo'nalishini ham o'zgartirishni talab qiladi.

Tolerantlik prinsipi. Tolerantlik muammolariga so'ngi paytlarda alohida e'tibor berilayotganligining sababi millatchilik, diniy ekstremistik qarashlarning namoyon bo'layotganligidadir. "Shuning uchun ham tolerantlik shaxsning alohida sifati bo'lib, uning turli sharoitlarga tez moslashuvi, boshqa milliy madaniy qadriyatlar, dinlarni hurmat qila bilish ko'nikmasini tarbiyalaydi" [6:216].

Altruizm prinsipi. Ma'naviy-ma'rifiy faoliyatda axloqiy, insonparvarlik an'analarga tayangan holda foydalanuvchilarda o'zaro beg'araz yordam bera olishi ko'nikmasini shakllantiradi.

Demokratizm prinsipi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tizimi rivojlanishining barcha bosqichlarida tarbiya jarayoni barcha subektlarining o'zaro teng hamkorligi va birgalikdagi ijodkorligiga asoslanadi.

Refleksivlik prinsipi. Subektning o'z shaxsiy faoliyatiga, o'zlashtirgan o'z hayotiy tajribasiga baho berishi, o'zgalarning u haqidagi fikrlari va ular bilan hamkorlik muloqoti va munosabatlarini o'rnatishiga yordamlashadi.

Individuallashtirish prinsipi. Har bir foydalanuvchi umumiy xislatlardan tashqari individual xislatlarga ham egadir. Foydalanuvchining bilimi, irodasi, hissiyotga oid xususiyati, shaxsiy xislatlari ta'lim-tarbiyaning borishiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi yoki betaraf qolishi mumkin. Shuning uchun ham ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanuvchilarga individual qobiliyatlarini maksimal rivojlantirishga imkoniyat yaratish, tadbir tashkilotchisi yordamida o'zini namoyon qila olishining yo'nalishini to'g'ri tanlay olishiga yordam berish alohida ahamiyatga egadir.

Lekin, individual yondashuv ma'naviy-ma'rifiy tadbir maqsadi va mazmunini alohida foydalanuvchiga moslashtirish emas, balki pedagogik ta'sir ko'rsatish usullari, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar shakl va metodlarini moslashtirish orqali uning rivojlanishining ta'minlanishini nazarda tutadi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali ta'lim-tarbiyani amalga oshirishda har bir yondashuv o'ziga xos xususiyatga ega bo'lsada, insonga gumanistik yondashuv va uni takomillashtirishning ahamiyati jihatidan ular bir butundir. Ushbu yondashuvlar tizimlilik, shaxsga yo'naltirilganlik, kommunikativ yondashuvlardan iboratdir.

Tizimli yondashuv. Ma'naviy-ma'rifiy tadbir maqsadi va mazmunini aniqlash, uni tashkil etish shakllari, amalga oshirish metod va vositalarini tanlash, maqsad bilan natijaning uyg'unligini ta'minlash imkonini beradi. Tajriba ko'rsatadiki, har qanday ma'naviy-ma'rifiy tadbirga tayyorgarlik ko'rish jarayoni bir qancha bosqichlardan tashkil topadi.

Birinchi bosqich, qo'yilgan maqsadni nazariy asoslash, tadbir tizimini modellashtirish, yetakchi yo'nalishni belgilash, jamoaning yakdilligini shakllantira bilishdir.

Ikkinchi bosqich-faoliyatning yetakchi yo'nalishini belgilash, eng samarali pedagogik texnologiyalarni tanlay bilishdir.

Uchinchi bosqich-ma'naviy-ma'rifiy tadbir tashkilot-chilari va ishtirokchilarining umumiy maqsad, umumiy faoliyat, umumiy ijodiy hamkorligini tashkil qila bilishdan iboratdir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish axborot-kutubxona muassasasida amalga oshirilayotgan axborot-kutubxona muassasasida xizmat ko'rsatish jarayoni bilan uyg'unlashtirilgan, bir butun, umumiy tizimning elementi sifatida namoyon bo'lishi kerak.

Shaxsga yo'naltirilganlik yondashuvi-insondan insonni izlash, insonning rivojlanishi va takomillashishini, o'z mohiyatini erkin namoyon qila olishining shart-sharoitlarini yaratishdir. "Shaxsga yo'naltirilganlik ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mazmuniga inson omili, uning qadr-qimmati, sha'ni, or-nomusi, huquq va burchlarini hurmatlash g'oyalarini singdirish zarurligini nazarda tutadi" [7:116].

Kommunikativ yondashuv-ma'naviy-ma'rifiy tadbir tarkibiy qismlarini to'la va eng maqbul tizimga keltirishni ifodalaydi. Ushbu yondashuvning psixologik omillari har bir foydalanuvchining shaxsini hurmat qilish, shaxslararo munosabatlarni rivojlantirishga asoslanadi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishda yuqorida ko'rsatib o'tilgan prinsiplar va yondashuvlarni aniqlash asosida biz maqsad, kognitiv, aksiologik, monitoring elementlarini o'z ichiga oluvchi tizimini tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ulardan har birini va funksiyalarini alohida ko'rib chiqamiz.

Maqsad-subyektning ongida o'z atrofini o'rab turgan muhit bilan munosabati jarayonida faoliyatning natijasi haqida shakllanadigan ideal tasavvurdir.

Har qanday ta'lim-tarbiya ma'lum natijaga qaratilgan bo'lganligi uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirning barcha tarkibiy qismlari: mazmun, tashkiliy shakl, metod va vositalari maqsadga bo'ysundiriladi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirning maqsadi eng oliy qadriyatlar asosida tarbiyalash orqali foydalanuvchi shaxsini shakllantirish va rivojlantirishdan iboratdir.



Kognitivlik- foydalanuvchilarning kasbiy faoliyatlarining asosi sifatida ilmiy, texnikaviy va ijtimoiy bilimlar, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilganlikni ifodalaydi.

Aksiologiya (yunoncha "axio" qadriyat va logos-ta'limot tushunchalaridan tashkil topgan bo'lib)- qadriyatlar haqidagi ta'limotdir. Qadriyatlar "narsa va hodisalar, jamiyat, moddiy va ma'naviy boyliklarning ahamiyati, axloqiy qoida va meyorlar, ideallar va maqsadlardagi baholash mezoni va usullarini ham o'zida aks ettiradi" [8:93].

Qadriyatlar halollik, poklik, o'zaro yordam, adolatlilik, haqiqatgo'ylik, ezgulik, tenglik, shaxs erkinligi, mehr-muhabbat, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi fazilatlar, burch, vijdon, or-nomus, mas'uliyat kabi axloqiy tushunchalar shaklida namoyon bo'ladi. Umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi sharoitida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda milliy qadriyatlar hamda shaxs manfaatlarini umumbashariy talablarga moslashtirish va uyg'unlashtirish ham asosiy vazifaga aylanib boradi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni o'tkazishning monitoringi-ushbu jarayonni tahlil qiluvchi, yo'naltiruvchi, muvofiqlashtiruvchi va yo'l qo'yilgan kamchiliklarni bartaraf etish hamda muammolarni hal qilishning asoslangan yechimini ishlab chiqishga qaratilgan majmuadir. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar monitoringini olib borishda quyidagi talablarga amal qilish zarur:

- monitoring uslubi tadbirga qo'yiladigan talabga mos kelishi;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbir jarayoni to'liq qamrab olinishi, uni boshqarishga imkoniyat yaratishi;
- texnologiyalarning qo'llanilishi natijasida, ma'naviy-ma'rifiy tadbir jarayonining sifatini ta'minlashga doir tavsiyalar ishlab chiqish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbir jarayonining qanday borayotganligini kuzatish, tahlil qilish, taktika va strategiyani qayta qurish imkoniyati, hamda unga tuzatishlar, o'zgartirishlar kiritish imkoniyatiga ega bo'lish kabilardan iborat.

Bizning tadqiqotimiz yo'nalishiga ko'ra monitoring quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

- tadqiq qilinayotgan muammo tashxisini amalga oshirish;

- ma'naviy-ma'rifiy jarayonning ma'naviy-axloqiy tarbiyaga ta'siri darajasini aniqlash;
- tadqiqotning har bir bosqichida uning natijasini qayd qilib borish;
- tadqiqot dasturiga o'zgartirishlar kiritib borish;
- monitoring natijalarini kiritib borish;
- monitoring natijalariga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning keyingi bosqichlarini rejalashtirish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasining samaradorligi quyidagi holatlarni hisobga olish bilan chambarchas bog'liqdir:

- tashkilotchining o'z bilimi va malakasi orqali faqat foydalanuvchilarga qaratilgan bo'libgina qolmasdan, ular bilan birga yangi bilimlarni o'rganish, voqelik mohiyatini bilishga qaratilgan yo'nalishini tanlab olishi;
- bilim, ta'lim va mustaqil ta'lim foydalanuvchilarning individual qiziqishlari, qobiliyati va jamoadagi ijtimoiy intilishlar bilan uyg'unlikda olib borilishi;
- tashkilotchilar va foydalanuvchilarning hamkorlikdagi faoliyati, shuningdek, foydalanuvchilarning mustaqil faoliyati uchun ham imkoniyat yaratish;
- jamoada ijodiy muhitning mavjudligi;
- har bir foydalanuvchi shaxsning erkin tanlash huquqini hurmat qilish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasiga dolzarb muammo sifatida e'tibor berilayotganligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- birinchidan, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga tizimli faoliyat sifatidagi yondashuvni joriy etish imkoniyatini beradi;
- ikkinchidan, tashkilotchining ma'naviy-ma'rifiy tadbir maqsadidan boshlab, olingan natijani nazorat qilib, baholash va zarur hollarda tuzatishlar kiritishgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi;
- uchinchidan, ijodiy faollashtirish omillariga asoslanganligi bois ko'zda tutilgan maqsadga yaqin natija olish imkonini beradi.

## TAHLIL VA MUHOKAMA

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish jarayoniga (texnologiyasiga) qo'yilgan asosiy talab ixtiyoriylik negizida ortiqcha ruhiy va jismoniy zo'riqishsiz yuqori sifat va samaradorlikka erishishdan iboratdir. Shu o'rinda ma'naviy-ma'rifiy jarayon unda ishtirok etuvchi subektlarga bevosita bog'liq bo'lib, u qanday tashkil etilishi va amalga oshirishidan qat'iy nazar quyidagilarni ta'minlashni ko'zda tutishi kerak:

- ma'naviy-ma'rifiy tadbir samaradorligi va sifatini oshirish;
- ma'naviy-ma'rifiy tadbir ishtirokchilari orasida ijodiy muloqot va munosabatlarni qaror toptirish;
- foydalanuvchilar tomonidan bilim, hatti-harakat usullari va shaxsiy fazilatlarni har tomonlama mukammal o'zlashtirilishini ta'minlash;
- foydalanuvchilarda ongli, faol, mustaqil, ijodiy fikrlash va hatti-harakatlarni bajarish ko'nikmalarini shakllantirish;
- foydalanuvchilarning o'z ijodiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishlari uchun shart-sharoitlar yaratish, demokratik va insonparvarlik g'oyalariga amal qilish kabilar. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirishning murakkab va ko'p qirrali jarayonida turli metodlardan foydalaniladi. Unda qaysi metodning tanlanishi turli omillarga tadbirning maqsad, mazmuni, qatnashchilarning tarbiyalanganlik darajasi, shaxslararo munosabatlar darajasi, tashkilotchining bilimi va malakasi, foydalanuvchilarning yosh va individual xususiyatlariga bog'liqdir. Albatta, har qanday holda tashkilotchi tomonidan qo'llanilishi mumkin bo'lgan metod haqida universal qo'llanma mavjud emas. Shunga ko'ra, ko'pgina tajribalarni o'rganish ko'rsatadiki, tadbirda yuqori natijaga erishish uchun metodlar majmuasini uyg'un tarzda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Metodlar majmuasi yo'nalishiga ko'ra ikkita asosiy funksional guruhga ajratiladi. Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etishda turli shakllaridan foydalaniladi. Qanday shaklni tanlash esa shart-sharoitga bog'liqdir.

Bizning tomonimizdan ishlab chiqilgan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish texnologiyasi modeliga quyidagi asosiy yo'nalishlarni ko'rsatish mumkin:

1) Kognitiv yo'nalish- foydalanuvchilar tomonidan ma'naviy-axloqiy, ilmiy, texnik va ijtimoiy yo'nalishlar tizimi, ko'nikma va malakalarning egallanishi tizimi, ko'nikma va malakalarining egallanishi natijasi, umumilliy, kasbiy va ijtimoiy bilimlarning muayyan darajasining shakllanishi.

2) Aksiologik yo'nalish-ma'naviy-ma'rifiy, axloqiy tarbiya maqsadlariga erishilishi natijasida muayyan qadriyatlar tizimini shakllanishi.

3) Faoliyatli yo'nalish-barkamol avlodni shakllantirish uchun shart-sharoit yaratish maqsadida shaxsga yo'naltirilgan ma'naviy-ma'naviy tadbirga oid faoliyat tizimini yaratish va amalga oshirish.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarga oid faoliyat turlari va shakllari.

Tadbirlar jarayonida quyidagi tashkiliy shakllardan keng foydalanish tavsiya etiladi:

- ommaviy ("Vatan himoyachilari kuni", "Xalqaro xotin-qizlar kuni", "Navro'z-umumxalq bayrami", "Xotira va qadrlash kuni", "Mustaqillik bayrami", "Til bayrami", buyuk ajdodlarimiz tavallud kunlari (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Amir Temur va boshqalar).
- guruhli (to'garaklar, ekskursiyalar, suhbatlar, ma'naviyat soatlari, uchrashuvlar, adabiy kechalar, ko'rik-tanlovlar va boshqalar).
- yakka tartibda (ko'rik-tanlovlarda qatnashish uchun individual tayyorgarlik ko'rish, ma'naviy merosni o'rganish yuzasidan konspektlar tayyorlash, ilmiy, tarixiy, falsafiy, badiiy asoslarni mustaqil o'qishni tashkil etish, referatlar yozish va hokozolar).

Shaxsga yo'naltirilganlik, ijodiy kamolot darajasi, o'z-o'zini takomillashtirishni o'rganishning metodlaridan biri jamoaviy ijodiy ishlarni amalga oshirishdir.

## XULOSA

Foydalanuvchilarda fuqarolik madaniyatini ijtimoiy hayotning barcha jabhalariga daxldorlik tuyg'usini shakllantirishda "Ma'naviyat soatlari", "Mustaqillik bayrami", "Xotira va qadrlash kuni", "Til bayrami", "Vatan himoyachilari kuni" bayramlarini tashkil etish alohida o'rin egalashini kuzatishlar va tahlillar yaqqol tasdiqlaydi.



Foydalanuvchilarda sog'lom turmush tarzi va jismoniy madaniyatni shakllantirishda "Sog'lom turmush tarzi nima?", "Sog'lom turmush tarzi-sog'lom kelajak garovi", "Sport bayrami", "Giyohvandlik-asr vabosi", "Giyohvandsiz hayot uchun", "Kashandalik zararli illat" singari mavzulardagi tadbirlar va "Sport bayrami"ni muntazam o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Mafkuraviy immunitet va g'oyaviy kurashchanlikni shakllantirish, milliy qadriyatlar targ'ibotida esa "Bugungi dunyo va mafkuraviy kurash", "Ommaviy madaniyat" tahdidi va unga qarshi zaruriyati, "Milliy qadriyatlar va ma'naviy yuksalish", "Milliy qadriyatlar-bizning qadriyatlar" mavzusidagi davra suhbatlarini qiziqarli tashkil etish o'z ijobiy samarasini beradi.

Axborot-kutubxona muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish asosiga ilg'or milliy, umuminsoniy ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va mezonlar, xalq ijodiy an'analari, marosimlar, bayramlar, o'yinlar va boshqalar qo'yilishi kerak. Ularni tashkil etishda va o'tkazishda tarbiya texnologiyalaridan yoki interfaol uslublardan foydalanish, foydalanuvchilarda insonparvarlik, vatanparvarlik, kasbiy fidoiylik singari xislatlarni shakllantirishga yordam beradi.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirni tashkil etish va amalga oshirish jarayoni-shaxsni shakllantirishga maqsadli yo'naltirilgan, tashkilotchilar, foydalanuvchilar hamkorligi uchun maxsus tashkil etiladigan, boshqariladigan va nazorat qilinadigan, o'zining pirovard maqsadi sifatida shaxsni shakllantiradigan jarayondir.

Yuqorida zikr etilgan fikrlarga ko'ra ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar texnologiyasi-ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va shaxsni rivojlantirish jarayonlarini maqbul-lashtirish maqsadida tashkilotchi, foydalanuvchilar va vositalar hamda imkoniyatlarni hisobga olib foydalanuvchilarda bilim, xatti-harakat usullari va ijobiy shaxsiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda tutuvchi rejalashtirish, tashkil etish va amalga oshirish, natijalarni maqsad bilan qiyoslab, kerakli tuzatishlarni kiritish bosqichlarini o'zida mujassamlash-tiruvchi tizimdir-deb ta'rif berish mumkin.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar-turli ma'naviy ehtiyoj-larga javob beruvchi, tarbiyaviy maqsadlarning yagona majmuasiga bo'ysundirilgan, bir-biri bilan o'zaro

hamkorlik qiluvchi, o'zida bir butun ta'limni ko'zda tutgan ma'naviy-ma'rifiy ta'sir majmuidir.

Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar ma'naviy-ma'rifiy ishlar jarayonining bir qismidir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlar- foydalanuvchilarning muayyan faoliyatini tashkil etuvchi va amalga oshiruvchi shakldir.

Ma'naviy-ma'rifiy ishlarning asosiy xususiyati-zaruriylik, ahamiyatlilik va tatbiq etish imkoniyatidan iborat.

Shu sababli axborot-kutubxona muassasalarida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar samaradorligini muttasil oshirib borish uchun zarur bo'lgan usullar, bilimlar, malaka va mahoratlar tizimi, zamonaviy pedagogik texnologiyalar, ularni ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar amaliyotida qo'llash masalalari kutubxona xodimlarining eng muhim muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

Bu esa, o'z navbatida axborot-kutubxona muassasalarida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar uslubiyotini zamonaviy pedagogik texnologiyalar ishlanmalari asosida yaratishni talab etadi. Fikrimizcha, axborot-kutubxona muassasalarida amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar texnologiyasi ijodiy faollik, mustaqil fikrlash va mohirona harakatlarga yo'naltirilgan bo'lishi va tashkilotchilar hamda foydalanuvchilar tomonidan minimal kuch sarflagan holda qo'yilgan maqsadlarga erishishda eng faol shakl, usul va uslublardan foydalanish, tadbirni muvaffaqiyatli tashkil etuvchilarning doimiy va majmuaviy faoliyatining asosiy qismidan iborat bo'lmog'i kerak.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi.-uchinchi nashr, Toshkent: O'zbekiston nashriyoti.- 2022.-440 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. – “Halq so'zi” gazetasi, 2017 yil, 29 iyul.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. Diniy – ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora – tadbirlari to'g'risida.- “Halq so'zi” gazetasi, 2018 yil, 17 aprel.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. Yoshlarni ma'naviy – ahloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim – tarbiya berish tizimini sifat jixatidan yangi bosqichga ko'tarish chora – tadbirlari to'g'risida.- “Halq so'zi” gazetasi, 2018 yil, 14 avgust.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. "Ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida". - "Halq so'zi" gazetasi, 2019 yil 4 – may.
6. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq..- T.O'qituchi. 1992- 160 b.
7. Agzamxodjayeva S.S. Ijtimoiy ideal va ma'naviy hayot.- T.; Falsafa va huquq instituti nashriyoti, 2007.-229 b.
8. Azroyans E. Globalizatsiya: Katastrofa ili put k razvitiyu? – M.: Noviy vek, 2002.- 152 s.